

**“SHER BILAN DURROJ” HIKOYATINI O‘QITISH USULLARI**

*Umarova Gulnora A'zam qizi*

[muzaguliroziqov@gmail.com](mailto:muzaguliroziqov@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonidagi o‘ninchi maqolatda to‘g‘riso‘zlik va yolg‘onchilik haqida fikrlar berilgan. Maqolatdagi fikrlarni dalillash maqsadida maqolatdan so‘ng “Sher bilan durroj” hikoyati keltirilgan. Ushbu maqolada shu hikoyatni maktab o‘quvchilariga o‘rgatishda ayrim metodlardan foydalanish haqida tavsiyalar berilgan. Hikoyat “Klaster”, “Ha yoki yo‘q”, “Mosini toping” kabi metodlar orqali tushuntirilganda o‘quvchilarning hikoyatdagi asl ma‘noni anglashlari yanada osonlashadi.*

**Kalit so‘zlar:** *“Hayrat ul-abror”, metod, “Klaster”, “Mosini toping”, yolg‘onchilik, sher, qirg‘ovul*

**Abstract.** *In the tenth article of Alisher Navai’s “Hayrat ul-abror” epic, thoughts are given about veracity and mendacity. In order to prove the points in the article, the store of “The lion and the pheasant” is presented after the articl. In this article, recommendations are given on the use of some methods in teaching this story to school children. When the story is explained through methods such as “Cluster”, “Yes or no”, “Find the right one”, it becomes easier for students to understand the true meaning of the story.*

**Keywords:** *“Hayrat ul-abror”, method, “Cluster”, “Find the right one”, mendacity, lion, pheasant.*

Alisher Navoiy “Xamsa”sining birinchi dostoni “Hayrat ul-abror”da har bir maqolatni dalillash maqsadida tarbiyaviy ahamiyatga oid turli hikoyatlar berilgan. Bu hikoyatlarda iymon, qanoat, rostgo‘ylik, vafo kabi fazilatlar haqida so‘z boradi. 5-sinf adabiyot darsligida ushbu dostondagi 10-maqolat tarkibida kelgan rostgo‘ylikni targ‘ib qilib, yolg‘onni qoralovchi “Sher bilan durroj” hikoyati berilgan. (Ahmedov, Qosimov, Qo‘chqorov, Rizayev, 2020, 138-bet). Bu

hikoyatda sherning donoligi va durroj (qirg'ovul)ning shoshqaloq va yolg'onchiligi aks etgan.

Yosh bolalar ayrim vaziyatlardan oson chiqib ketish uchun ba'zida yolg'on so'zlashlari ham mumkin. Aynan shu vaziyatni oldini olish, yolg'onchilikning yomon oqibatlarga olib kelishi mumkinligi mazkur hikoyatni to'g'ri o'qitish va tahlil qilishga bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan "Sher bilan durroj" hikoyatini quyidagi metodlar asosida o'qitishni tavsiya qildik.

**Klaster metodi** – bu metod o'quvchilarda erkin fikrlashni rivojlantiradi. Ushbu metod yordamida hikoyatdagi qahramonlar xarakter-xususiyatlarini hikoyat syujeti orqali o'rganib chiqamiz:



Klaster chizmasida hikoyatdagi sherning ijobiy fazilatlarini berilgan. Bu sifatlar hikoyatdagi qaysi o'rinlarda kelganini matndan aniqlab chiqamiz.

### **Kuchliligi:**

*Bor edi bir beshada bir tund sher*

*Vahshat aro ko'k asadidek daler.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 228-bet)

### **Donoligi:**

*Ko'ngli bu ishdin bo'lub ozorliq,*

*Boshladi durroj bila yorliq.*

*Vahmni qo'y, hamdam-u hamrozim o'l,*

*Aysh-u tarab vaqti navosozim o'l.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 229-bet)

*Sher eshitib aning ilhonini,*

*Fahm qilib savtida yolg'onini.*

*Der edi, yolg'on demakim shum erur,*

*Kizb tuz el ollida mazmum erur.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 230-bet)

**Mehribonligi:**

*Tishlabon ul moyayi payvandini,*

*Og'zida asrar edi farzandini;*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 228-bet)

*Tish bila aylab bolasi yorasin,*

*Yora etib o'z jigari porasin.*

*Doim anga bu g'am aro g'am edi,*

*G'am neki, motam uza motam edi.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 229-bet)

**Rostgo'yligi:**

*Dediki, mendin sanga yo'q qasd-u kin,*

*Emin o'l-u bil meni dog'i amin.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 229-bet)

**Qo'rqmasligi:**

*Shart bukim yetsa gazande sanga,*

*Solsa falak hiylasi bande sanga.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 229-bet)

*Lutf qo'lin holinga hamdast etay,  
Xasmni sarpanja bila past etay.  
Ko'rguzub ixlos ishida ixtisos,  
Seni aduv domidin aylay xalos.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 230-bet)

Durrojning yaxshi fazilatlarga ega ekanligi ham matndan aniqlanadi.

**Vafodorligi:**

*Sher ko'p afsun bila chun qildi jahd,  
Sidq ila durroj dog'i qildi ahd.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 230-bet)

**Mehribonligi:**

*Andoq aro yerda ayon bo'ldi mehr-  
Kim, hasad eltur edi andin sipehr.*


(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 230-bet)

**Kuchliligi:**

*Qaydaki orom tutub sharza sher,  
Girdida durroj uchubon daler.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 230-bet)

Mazkur metod orqali o'quvchilar asar matni bilan to'liq tanishib chiqadilar. Hikoyatdagi obrazlarning xarakter-xususiyatlarini bilib oladi. Sher va Durrojning ijobiy fazilatlari bilan birga salbiy jihatlarini ham topish o'quvchilarga qiziqarli bo'ladi. Shu o'rinda Sher bilan Durrojning salbiy xarakteri ifodalangan baytni isbot tariqasida keltirib o'tishlari vazifa qilib beriladi.



**G'azabnok:**

*Sheri jayon vahmidin andeshada;*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 229-bet)

*Qaydaki orom tutub sharza sher,*

*Girdida durroj uchubon daler.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 230-bet)

Ostida chizilgan “jayon”( Shamsiyev, Ibrohimov, 1972, 217-bet) va “sharza” (Shamsiyev, Ibrohimov, 1972, 691-bet) so‘zlari forschada g‘azabli, haybatli, qahrli, dahshatli degan ma’nolarni anglatadi. Shundan kelib chiqib sher g‘azabkor ekanligini bilsak bo‘ladi.

**Qo'rqq:**

*Vahm ila seskanmak edi sher ishi.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 229-bet)

**E'tiborsizligi:**


*O'yla gumon etti chin afg'onini;*

*Sidqini ham kizb gumon ayladi.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 231-bet)

Hikoyatda sher qanchalik kuchli bo'lishiga qaramay bolalarini chumolidan asrolmagani aks etgan bayt orqali uning imkonsizligini ham aytib o'tish o'rinli.

Endi durroj(qirg'ovul)ning xarakterini klaster metodi orqali o'rganib chiqamiz:



Hikoyatdagi durroj xarakterini ikkiga bo'lib oldik, chunki unda ham sherniki singari salbiy va ijobiy xislatlar mavjud. Buni quyidagi misollar orqali ko'rib chiqamiz.

### **Yolg'onchiligi:**

*Sher eshitib aning ilhonini,*

*Fahm qilib savtida yog'onini.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 230-bet)

### **Ochko'zligi:**

*Dona bila suv sari qilg'och xiom,*

*Tortti sayyod aning ustiga dom.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 230-bet)

**Nodonligi:**

*Pand eshitmas edi durroji mast,*

*Kizbdin etmas edi afg'onni past.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 230-bet)

**Qo'rqoqligi:**


*"Bor edi durroje o'shul beshada,*

*Sheri jayon vahmidin andeshada.*

(Navoiy, Hayrat ul-abror, 2020, 229-bet)


Hikoyatni o'qitishda **"Ha yoki yo'q"** metodidan ham foydalanish mumkin. Bu metod orqali o'quvchida fikrlar chalkashligi yuzaga kelmaydi va har bir baytni e'tibor bilan o'qishga harakat qiladi.

**"Ha yoki yo'q"** metodida o'qituvchi o'quvchilarga bir qancha faktlarni aytadi, o'quvchilar esa bu faktlarga hikoyatdan kelib chiqib "ha" yoki "yo'q" deb munosabat bildirishadi. Faktlar quyidagicha bo'lishi mumkin:



Faktlar shu tartibda berilishi mumkin.

Hikoyatni **"Mosini toping"** metodi orqali ko'rib chiqamiz. Bunda ma'lumotlar beriladi va har bir ma'lumot ro'parasiga *"to'g'ri yoki noto'g'ri"* so'zlari yoziladi. O'quvchi esa mosini belgilaydi.



Savollarni o'qituvchi o'quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqib, o'zgartirishi mumkin. Bu metod ham o'quvchilarni hikoyatning mazmun-mohiyatini yanada chuqurroq anglashiga yordam beradi. Har bir aytilayotgan ma'lumotning to'g'ri yoki noto'g'ri ekanligiga e'tibor bilan qarashga o'rgatadi. Hikoyatni shunchaki o'qib qo'yish mumkin, ammo metodlar yordamida o'qitish ham qiziqarli ham xotirada uzoq saqlanib qoladi. O'qituvchi hikoyatni metodlar orqali kerakli o'rinlariga urg'u berib tushuntirsa, dars yanada samarali o'tadi. O'quvchilar Alisher Navoiyning to'g'riso'zlikka chaqiruvini yaxshi anglaydi. Hikoyat zamiridagi haqiqatlarni tushuna boshlaydi va to'g'ri xulosalar chiqaradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ahmedov, S., Qosimov, B., Qo'chqorov, R., Rizayev, Sh. (2020). *Adabiyot: Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-sinfi uchun darslik*. Sharq.
2. Navoiy, A. (2020). *Hayrat ul-abror*. G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi.
3. Shamsiyev, P., Ibrohimov, S. (1972). *Navoiy asarlari lug'ati*. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti.